



OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLASHTIRISH VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISH MAZMUNI

Qurbonova B.

Farg'ona davlat universiteti Tasviriy san'at kafedراسi mudiri, p.f.b.f.d (PhD)

Tayanch so'zlar: raqamli texnologiyalar, fanlararo aloqa, integratsiya, "Tasviriy san'at" fani.

Ключевые слова: цифровые технологии, междисциплинарная коммуникация, интеграция, наука "Изобразительное искусство".

Key words: digital technologies, interdisciplinary communication, integration, "Fine Art" science.

Kirish. Oliy o'quv yurtlarida ta'lim jarayonining xususiyatlari, shuningdek, universitetlarning jamiyat va iqtisodiyotdagi ahamiyati jadal o'zgarib bormoqda. Butun dunyoda universitetlar talabalar, o'qituvchilar va moliyaviy mablag'larni jalb qilishda bir-biri bilan raqobatlashmoqda. Bunday raqobatda zamon bilan hamnafas va yangi raqamli imkoniyatlardan foydalanuvchi oliy o'quv yurtlari boshqalarga nisbatan ustunlikka ega bo'lib bormoqda.

Raqamlashtirish ta'lim va boshqaruv uchun yangi imkoniyatlar yaratib, ma'lumotlar yig'ish va tahlil qilish, o'zaro hamkorlik va muloqot qilishni osonlashtirdi. Raqamlashtirishning afzalliklari samaradorlikni oshirish, talabalar faolligini oshirish, shaxsga qaratilgan ta'lim va yangi o'qitish usullaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, raqamlashtirish universitetlarni, o'quv dasturlarini, professor-o'qituvchilarni, xodimlarni va resurslarni boshqarishni osonlashtiradi.

Hozirgi paytda texnika va texnologiyalar kun sayin shiddat bilan yangilanib borayotgan davrda jamiyatni dunyoqarashi va zamonga moslashuvini tubdan o'zgartirishi tabiiy holat bo'lib bormoqda. Bu holatda ta'lim olish holatlarini yangilanishiga sabab bo'ladi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'limlarning yo'lga qo'yilishi bunga bir misol sifatida ko'rishimiz mumkin.



Adabiyotlartahlilivametodologiya. O'quv jarayonida fanlararo aloqadorlikning amalga oshirilishi ta'lim sifatining oshirilishiga jiddiy ta'sir ko'rsatib, ta'limni modernizatsiyalash, innovatsion o'qitish imkoniyatlarini kengaytiradi. Integratsiya jarayonini o'rganishda didaktik olim Yan Amos Komenskiy quyidagi fikrlarni bildirgan: "Bir-biri bilan bog'liq bo'lgan hamma narsa, xuddi shunday holda o'rganilishi kerak". Fanlararo bog'liqlik g'oyasiga keyinchalik juda ko'p pedagoglar yondashib, uni rivojlanishi va umumlashtirilishiga hissa qo'shdilar.

D.Lokk g'oyasiga ko'ra: "Ta'lim mazmunining aniqlanishida bir fan boshqa fanlar elementlari va faktlari bilan to'ldirilishi kerak". Xuddi shuningdek, I.V.Pestalossi o'zining didaktik maqolasida o'quv darsliklaridagi fanlararo bog'liqlik masalasiga keng to'xtalib o'tar ekan: "Bir-biri bilan bog'liq fanlarni ongingga keltir, ularni tabiatdagi uzviy bog'liqlik holatida ekanini angla" - deydi.

Pestalossi bir fanning boshqa bir fandan uzoqlashuvi hatto xavfliligini ta'kidlaydi.

Fanlararo aloqa va integratsiyaning OTM larda o'qitish va tarbiyalashdagi ahamiyati juda ko'p pedagog olimlar tomonidan ko'rib chiqilgan. Jumladan, I.D.Zvernov, M.A.Danilov, V.N.Maksimova, S.P.Baranov, N.M.Skatkin; metodist olimlar M.R.Lvov, V.G.Goreskiy, N.N.Svetlovskaya, Yu.M.Kolyagina, G.N.Pristupa va boshqalar. Bir qator olimlar T.L.Ramzayev, G.N.Akvilev, N.YA.Vinelkin, G.V.Belyukovlarning ilmiy ishlari boshlang'ich fanlararo va fanlar ichidagi bog'liqliklar muammosiga bag'ishlangan. Hozirgi vaqtda ham integratsiya muammosiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Integratsiyani uslubiy hodisa sifatida e'tirof etgan I.Kalojvari va L.Pechnikovalar «Qanday qilib integrirlangan darsni tashkillash mumkin?» nomli maqolasida ta'kidlashlaricha: «Integratsiyaning kelajagi porloq. Bu usul natijasida o'quvchilar ongida olamning faol va ko'p tomonli tasviri shakllanadi.

So'ngi yillarda O'zbekistonda R.Qaxxorov, B.Xusanov, M.Juraboev, X.Valiyev kabi pedagoglar pedagogikaning bu jihatini keng yoritib keldilar.

Ular bu printsipni o'z mutaxassisliklaridagi fanlarni o'qitishdagi samaradorligini ilmiy tadqiqotlari bo'yicha asoslab, uning o'quv-tarbiya ishidagi izchilligi, faolligi, samaradorligini turli yo'nalishlarda, harakterda ifodalab berdilar.

Shuningdek, fanlararo bog'lanish sistemasini tasviriy san'atni o'qishda ham albatta samara berishini shu sohaning ko'zga kuringan pedagog-rassom olimlari N.Rostovtsev, V.Kuzin, R.Xasanovlar ham e'tirof etib keldilar.

V.S.Kuzin o'zining doktorlik dissertatsiyasida, «Tasviriy san'atni o'qitishda fanlararo bog'lanish printsipini qo'llanishi masalasi tasviriy san'atni o'qish metodikasi bo'yicha tadqiqotlarning eng birinchi urinida turadi», – deb ko'rsatib o'tadi[2].



R.Xasanov o'zining «Narsani o'ziga qarab rasm chizish» nomli metodik qo'llanmasida «Tasviriy san'at fanini o'qishda, uni boshqa o'quv fanlari bilan bog'lanishini unutmash kerak. Chunki, darsni boshqa o'quv fanlari bilan bog'lanishi, darsning maqsadi va vazifani to'g'ri belgilab beradi», – deb ko'rsatgan edi. Talabalar olgan bilimlarini amalda faol foydalanishga boshlashadi. Chunki bilimlari osonroq amaliyotga xos xususiyatlarni aniqlaydi, yangicha fikr lay boshlaydi, fanni tez o'zlashtiradi, uning boshqa fanlarga bo'lgan munosabatini ravshanlashtiradi». Talabalarini o'qitishda dars samaradorligiga erishish uchun integrirlashga e'tibor berish shart. E.Smirmova «Bo'lmasdan egalik qil» maqolasida shunday deydi: «Birinchi bosqichda quyidagi fanlarni integrirlash mumkin: o'qish, yozuv, tasviriy san'at va mehnat. Faqat o'qish va faqat yozish talabani juda charchatadi va unda salbiy tuyg'ularni uyg'otadi. 1-kurs talabasida birinchi darslardayoq o'qishga bo'lgan istak yo'q bo'lmasligi mumkin. Uning ko'zlaridagi uchqun o'chmasligi kerak. Yuqorida aytib o'tilgan fanlarni tartiblashda o'quvchining o'rganish jarayonini, qiziqishini ushlab turish, faollashtirishga e'tibor beriladi». Ta'lim tizimida ilgaridan integrirlangan kurslar borligini unutmash kerak. Savodxonlik darslari o'qish va yozuv K.D.Ushinskiy davridanoq integrirlanib o'tiladi. Hozir ilk bosqichda yarim yillikda o'qish va yozuvga o'rgatiladi[3:119]

Natijalar va muhokama. Oliy ta'lim tizimida raqamli universitet loyihasi davom etmoqda. Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga oliy ta'lim muassasalaridan olinadigan turli hisobot va ma'lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularni tayyorlashning qog'oz shaklidan voz kechish, boshqaruv tizimini raqamlashtirish maqsadida raqamli universitet loyihasi doirasida “Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi” (HEMIS – Higher Education Management Information Systems) ishlab chiqildi. Ushbu axborot tizimi “Ma'muriy boshqaruv”, “O'quv jarayoni”, “Ilmiy faoliyat” va “Moliyaviy boshqaruv va statistika” axborot tizimlarini o'z ichiga oladi.

Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimini joriy etishdan maqsad:

- OTM faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash;
- oliy ta'lim tizimida o'quv, ilmiy, ma'muriy va moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish;
- oliy ta'lim tizimida byurokratik to'siqlar yuzaga kelishini oldini olish va moliyaviy xarajatlarni qisqartirish;
- OTM, talaba, va ish beruvchi tashkilotlar o'rtasida uzviylikni ta'minlash;
- boshqaruv jarayonlari uchun sarf qilinadigan vaqtni qisqartirish va mehnat samaradorligini oshirish;
- ta'lim jarayoni ishtirokchilari faoliyati samaradorligini monitoring qilish;

- tahliliy ma'lumotlarni shakllantirish va qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirish va tezlashtirish.

Oliy ta'lim muassasalarida raqamlashtirish va raqamli texnologiyalar vositasi yordamida ta'limni tashkil etish talabalarning dars mashg'ulotlarga faol qatnashishi, mavzularni to'liq o'zlashtirishi, kelajakdagi kasbiga mehrining oshishi va turli kompetensiyalarini rivojlaniga sabab bo'ladi [4:1150].

Bugungi kunda raqamli ta'limda talabalarning fanni o'zlashtira olishi emas, balki ular bir vaqtning o'zida qanday o'qiyotganini, fanni qanday o'rganayotganini, vazifalarga qiziqishi, o'z darajasidagi muammolarga fikr bildirishlarini kuzatish mumkin. Buning natijasida talabalarning mustaqil o'rganishi, shaxsiy o'rganishga moslashishi va o'zini ustida ishlashi kabi qobiliyatlari rivojlanadi. Dars jarayonlari raqamli kontentda jonli olib borish va darslarda interfaol topshiriqlarni berish, virtual loyabatoriyalarda o'rganish talabalarni yanada fikrlashlarini o'stiradi. O'zi qiziqqan sohadagi kasbiy kompetensiyalari rivojlanadi.

Hozirgi kunda fanlararo bog'lanish tasviriy san'at darslari va mashg'ulotlarini texnologik va didaktik jihatdan to'g'ri tashkil etishni yo'lga quyadi. Berilgan dars soatlaridan unumli foydalanish imkoniyatini yaratadi. Aytish mumkinki, tasviriy san'atning har bir darsi uchun didaktik sharoitni faqat fanlararo bog'lanish sistemasigina to'la yaratib bera oladi. Fanlararo bog'lanish asosida o'qish darslarda berilgan bilim va malakalarni turmush, jamiyat va ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'laydi. Shuningdek, bu tizimda o'qitish tasviriy san'atdan berilgan bilim va malakalarni boshqa o'quv fanlaridan berilgan bilim va malakalar bilan uyg'unlashtirilgan holda bir butun, umumlashgan, mukammal bilimlar zaminini yaratadi.

Xulosa.Raqamlashtirishning asosiy afzalliklaridan biri bu talabalarning faolligini oshirish imkoniyatlaridir. Onlayn ta'lim platformalari, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar kabi raqamli vositalardan foydalangan holda universitetlar o'quvchilarni motivatsiya va yo'lda ushlab turadigan interaktiv hamda qiziqarli ta'lim tajribalarini yaratishi mumkin. Shuningdek, raqamlashtirish universitetlarga o'yin va virtual haqiqat kabi yangi o'qitish usullaridan foydalanish imkonini beradi. Bu usullardan talabalarga murakkab tushunchalar va nazariyalarni tushunishni osonlashtiradigan interaktiv ta'lim tajribasini yaratish uchun foydalanish mumkin[5].

Talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirish, ularda zarur kompetensiyalarni shakllantirish orqali ishga joylashish ko'rsatkichlarini ko'paytirish hamda turli vositalar orqali ma'lumotlarni yetkazish va tushuntirish usullarini qo'llagan universitetlar nufuzi oshishi hamda ularda mazkur imkoniyatlar orqali qo'shimcha foyda olishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi orqali boshqalarga nisbatan ustunlik shakllanadi.



Ta'limdagi raqamli texnologiyalar faqat raqamli qurilmalardan foydalanish bilan chegaralanib qolmaydi, ular o'qituvchi va talaba o'rtasida munosabatlarni oshirishga yordam beradi, shuning uchun ta'lim jarayonining sifati, o'zaro ta'sir va samaradorlik. Raqamli ta'lim shaxsiylashtirilgan ta'lim uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, hamkorlikning yangi modellari paydo bo'ladi va talabalar uchun innovatsion ta'lim strategiyalari doirasi kengayadi. Ta'lim jarayonida yangi yondashuvlar, texnikalar, ta'lim modellari yaratish uchun yangi imkoniyat paydo bo'ladi. Raqamli texnologiyalar o'qituvchi va talabaning samarali hamkorlik va samarali ta'lim faoliyatiga qaratilgan samarali vositadir. Ta'limning zamonaviy shartlari raqamli muhitni chuqur tushunishni talab qiladi va raqamli savodxonlik bilimlari ta'lim sifatini oshirishga imkon beradi hamda ta'lim natijalari doimo dolzarb bo'lib qoladi.

Adabiyotlar:

1. Ahmedov M. B., Xasanova M. Z. Qalamtasvir. – Toshkent: “IJOD-PRINT”, 2021.
2. Kuzin V.S. Painting: An exemplary discipline program for the specialty 030800 – Fine Arts. MSGU. Moscow, Prometheus Publ., 2004. – 21 p.
3. Muydinovich R.I. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi tufayli paydo bo'lgan kasblar va ularni o'rganish. Pedagog's jurnali, 13(1), 2022. – B. 117-122.
4. Siddiqov I.M., Igamberdiyev U.R. Pedagogika oliygohlarida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini shakillantirishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences, 1(11), 2021. – B. 1146-1163.
5. <https://kun.uz/news/2023/03/28/> Oliy ta'limni raqamlashtirish – ustuvor vazifa

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada texnika va texnologiyalar, raqamli universitet loyihasi, oliy ta'lim muassasalarida raqamlashtirish va raqamli texnologiyalar vositasi, fanlararo aloqa va integratsiya, “Tasviriy san’at” fanini o'qitish, darslari va mashg'ulotlarini texnologik va didaktik jihatdan to'g'ri tashkil etish orin olgan.

РЕЗЮМЕ

В этой статье удалось достичь методов и технологий, проекта цифрового университета, инструментов оцифровки и цифровых технологий в высших учебных заведениях, междисциплинарной связи и интеграции, технологически и дидактически правильной организации преподавания, уроков и обучения «Изобразительному искусству».

SUMMARY

In this article, it was possible to achieve methods and technologies, a digital university project, digitization tools and digital technologies in higher education institutions, interdisciplinary communication and integration, technologically and didactically correct organization of teaching, lessons and training in “Fine Arts”.